

MILLIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA KINONING AHAMIYATI

Hurliman Janabeva

ÓZMKÓMI Nókis filiali talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18316964>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq milliy kino san'atining milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati va filmlarning ongga ta'siri haqida chuqurroq to'xtalamiz.

Kalit so'zlar: madaniyat, tafakkur, qadriyatlar, axborot, dunyoqarash, milliy repertuar, fikr.

Аннотация. В данной статье мы подробнее остановимся на значении каракалпакского национального киноискусства в формировании национальной культуры и влиянии фильмов на сознание.

Ключевые слова: культура, мышление, ценности, информация, мировоззрение, национальный репертуар, мысль.

Madaniyat ongni chuqur shakllantiradi, ijtimoiylashuv orqali dunyoni idrok etish, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari, til va o'z-o'zini anglash chegaralarini belgilaydi, fikrlash, his-tuyg'ular va hatto miyaning plastikligi tufayli uning tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. U o'zimizni, boshqalarni va jamiyatni qanday ko'rishimizni belgilaydi, "ko'zgu" vazifasini bajaradi, inson "qanday bo'lishi" kerakligini ko'rsatadi, xulq-atvorni an'analar, odob va qonunlar orqali tartibga soladi.

Madaniyat ongga qanday ta'sir qiladi degan qarashga chuqurroq to'xtalamiz. Madaniy munosabatlar kognitiv jarayonlarga, masalan, vizual idrok, diqqat va o'z-o'zini tahlil qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Qoraqalpoq kinosi san'ati orqali xalqning madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati haqida tadqiqotchilar shunday fikr bildirib o'tadi: "Milliy kinomiz milliy madaniyatimizni shakllantirishda o'z o'rniga ega, shuning bilan birga ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik mavzudagi filmlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi."

"Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasi tomonidan tasvirga olingan "Yangra qo'biz asrlar go'vohisan" hujjatli filimida xalqimizning uzoq asrlik merosi hisoblangan qo'biz asbobi tarixi so'z etiladi. Filmda soz asbobining milliy xususiyati nimalarda ko'rinadi degan savolga javob topiladi. Badiiy filmlarda milliy madaniyatning berilishi haqida so'z etkanda "Tanka" filimida bosh qahramon Ayjamal va uning onasi qoraqalpoq ayollariga mos xarakterda tasvirlanadi. Filmda milliy qadriyatlar va dunyoqarash mavjud.

Kino ayniqsa yosh avlodlarimizda milliy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Yoshlar ongini zabt etadigan milliy badiiy filmlar yaratishda eng avvalo sifatli ssenariylar yozishga e'tibor qaratish lozim. Yoshlar xalqimizning milliy urf-odat va an'alarini mukammal bilmasligi mumkin.

Qoraqalpoq kinochilari tomonidan suratga olingan "hayotning uch fasli" yoki Eshon baxshi ijodiga bag'ishlangan badiiy filmda qoraqalpoq xalqining milliy madaniyati mahorat bilan aks ettirilgan. Shunday qilib, madaniyat nafaqat ta'sir ko'rsatadi, balki ongga singib, shaxsning ajralmas qismiga aylanadi, insonning dunyoni qanday idrok etishi, talqin qilishi va harakat qilishini belgilaydi.

Madaniyat tafakkur tuzilishini, voqelikni idrok etishni va insonning ijtimoiy xulq-atvorini quyidagi mexanizmlar orqali belgilaydi:

Milliy kino yaratishda til masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Ssenariychi, kinorejissyor va kinooperator o'sha yaratiladigan kino san'atining tilini hosil qiladi. Shuning uchun ham ushbu uch birlik eng avvalo milliy tilimiz boyligidan mohirona foydalana olishi kino tilining badiiy darajasini ko'rsatadi. Til madaniyatning bir qismi sifatida narsa va hodisalarni tasniflash uchun kategoriyalarni belgilaydi. Turli til egalari vaqt, makon va ranglarni turlicha qabul qilishlari mumkin.

Kino orqali o'sha elning milliy madaniyatini ko'rib o'rganib borasan, ba'zida esa havaskorlar tomonidan suratga olingan qoraqalpoq kinolarini ko'rib o'tirsak, milliy mentalitetga mos kelmaydigan syujetlarni ko'ramiz. Masalan, "Azart oqibati" badiiy filmida yengil tabiatli qizlar turmushi haqida berilganda, tarbiyaga to'g'ri kelmaydigan noo'rin xatti-harakatlar juda ochiq beriladi. Kinoijodkorlarning bunday beparvoligi tufayli kino san'ati milliy madaniyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'ylantiradigan masala bo'lib, har bir kino ijodkori eng avvalo o'sha xalqning madaniyatini chuqur o'rganib olishi sharaflidir. Kinoning qadriyat yo'nalishlari madaniyat axloqiy me'yorlar va ustuvorliklarni shakllantiradi (masalan, G'arb madaniyatlarida individualizm, Sharq madaniyatlarida esa jamoaviylik), bu esa shaxsning o'zini o'zi anglashiga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz o'rinli, qoraqalpoq milliy kinolarini yaratish uchun eng avvalo qoraqalpoq xalqining uzoq yillik tarixi va madaniyatini o'rganib chiqib, ssenariylar yozishga kirishsa va yana kino ijodkorlar o'sha xalqning ichiga chuqurroq kirib borsa, ular yaratgan filmlar milliy madaniyatimizni shakllantirish uchun xizmat etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, G'arb madaniyati vakillari ko'proq markaziy obyektga (tahliliy fikrlash), Sharq madaniyati vakillari esa kontekst va obyektlar o'rtasidagi aloqalarga (xolistik fikrlash) e'tibor qaratadilar.

Ijtimoiy ssenariylar: Madaniy kodlar bolalikdan o'zlashtiriladigan stressga odatiy javoblarni, his-tuyg'ularni ifodalash usullarini va muloqot modellarini belgilaydi.

Voqelikni filtrlash: Madaniyat inson voqealarni "muhim"ni "ikkinchi darajali"dan va "normal"ni "anomal"dan ajratib talqin qiladigan "linza" vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda milliy repertuar har qanday milliy teatrning bosh g'oyaviy-badiiy asosi ekani barchamizga ayon. Ana shu g'oyaviy-badiiy xususiyatlarni alohida ta'kidlashimizdan maqsad, yaqin kunlargacha dramaturgiyaning g'oyaviyligiga, ya'ni Markaziy Osiyodagi barcha respublikalar adabiyotining ushbu turiga bo'lgan talab hamda munosabat umumiy xususiyatlarga ega ekanligiga e'tibor qaratishimizdan iborat.

Albatta, azaldan milliy kinolar bevosita millatning hayoti, turmush tarzi, uning ijtimoiy muammolari, kundalik turmushining serqirraligi hamda mayda-chuyda jihatlarigacha aks ettirishi ma'lum. Holbuki, badiiy ijodni, xususan, dramaturgiyani ideallashtiruvchi ko'rinishlardan biri shundaki, milliy madaniyatga xos bo'lgan belgilar umuminsoniy fazilatlarining bir ko'rinishi emas, balki zamon talabidan kelib chiqib, do'stona munosabat g'oyalariga daxldor bo'lar edi.

Biroq, ana shu milliy voqelik mazmunidan milliy san'at mazmuni, eng muhimi badiiy ijod fantaziyasining oziq olishini qoraqalpoq teatrining bo'lajak ijodkorlari, ularning dono ustozlari dastlabki rivojlanish davridayoq yaxshi anglagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘laxo‘jayeva M., Qozoqboyev T., Drama nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 98 b.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom, 2000.
3. Tajadinova, Guljakhan. "Development Of Historical Films In Modern Karakalpak Cinema." *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 6. 2025.
4. Tajadinova G. N. THE REALITY OF THE TIME IN KARAKALPAK FILMS //Oriental Art and Culture. – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 281-284.
5. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
6. Madiyurov, Baxtiyor Smetovich. "QORAQALPOQ FILMLARIDA XARAKTER YARATISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 6.4 (2025): 246-250.
7. Tajadinova Guljakhan Nizamatdinovna. "THE REALITY OF THE TIME IN KARAKALPAK FILMS." *Oriental Art and Culture* 6.4 (2025): 281-284.